

SIFATLI TA'LIMGA E'TIBOR NATIJASI

Embergenova Orazgu'l Bazarbayevna

Chimboy tumani 16-maktabning Qoraqalpoq tili va adabiyoti
fani o'qituvchisi

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 11.10.2024

Revised: 12.10.2024

Accepted: 13.10.2024

ANNOTATSIYA:

Maqolamizda davlatimiz tomonidan ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar, sifatli ta'limga qaratilgan e'tibor masalasi haqida fikr yuritilgan.

KALIT SO'ZLAR:

*davlat siyosati,
amalga oshirilayotgan
islohatlar, ijtimoiy-
iqtisodiy sohalari,
ta'lim, maktab ta'limi*

Yurtimizda bugungi kunda barcha sohalarda islohatlar davom etmoqda. Ushbu islohatlar inson manfaatlariiga xizmat qiladi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan ta'lim sohasida ham islohatlar amalga oshirilmoqda. Misol tariqasida, yaqin kunlarda Qoraqalpog'istonli yoshlarning oliy ta'lim muassasalariga qabul qilinishlari bo'yicha qo'shimcha kvotalarning ajratilishi va minglab yoshlarning talabalikga qabul qilinishi so'zimizga dalil bo'ladi. Yoshlarimizga yaratilib berilayotgan bunday imkoniyatlar ko'zimizni quvontiradi, albatta.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o'z nutqida: "Bag'rikeng, tanti, qiyinchiliklarni mardonavor yengib o'tayotgan qoraqalpoq xalqini e'zozlayman. Mehr va g'urur bilan aytaman, men nafaqat O'zbekiston, Qoraqalpog'istonning ham farzandiman" – deya ta'kidlagan edi [1]. Darhaqiqat, davlatimiz rahbari bugungi kunda Qoraqalpog'istonga alohida e'tibor qaratmoqda. Xorijiy davlatlardan investitsiyalar jalb qilgan holda, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni rivojlantirmoqda. Yangilanishlar, yangidan barpo etilayotgan zavod, fabrikalar, tikuv sexlari tashkil etilishi natijasida minglab yoshlarimiz bandlik bilan ta'minlanmoqda. Yurtimizga tashrifi davomida Respublika faollari bilan uchrashib, Nukus shahridan Toshkent shahrigacha olib boruvchi temir yo'l va asfalt yo'llarini yangidan barpo etish bo'yicha vazifalar belgilab bergen edi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan logistikani rivojlantirish

bo'yicha belgilangan vazifalar bugungi kunda o'zining ijobiy natijasini ko'rsatmoqda. Kam ta'minlangan va yordamga muhtoj oilalar uchun arzonlatilgan kreditlar va subsidiyalar ajratilib, ular xonadonlarga ega bo'lmoqda. Yo'qoridagi islohatlar va yangilanishlar har bir yurtdoshimizning turmush tarzini ijboiy tomonga o'zgartirmoqda.

Biz Yangi O'zbekistonni barpo etar ekanmiz, ta'lim-tarbiyasiz kelajagimizni ko'z oldimizga keltira olmaymiz. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdullo Avloniy: "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" – degan edi. Ajdodlarimizga munosib avlodlar tarbiyalash maqsadida, sifatli ta'lim masalasiga diqqat qaratilmoqda. Maktablarimiz zamонавија rekonstruksiyalar qilinib, zamонавија о'кув qurollari bilan ta'minlanmoqda. Sport zali, sinf xonalari, to'garak xonalarida dars mashg'ulotlarini tashkil etish uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Qoraqlapog'istonlik yoshlar "Besh tashabbus – besh imkon" shoiri ostida sport to'garaklari, adabiyot san'at to'garaklariga a'zo bo'lib tuman, shahar va Respublika miqyosida o'tkazilgan tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritib kelmoqda. Fan olimpiadalari, adabiyot va sport bo'yicha o'tkazilgan ko'rik tanlovlarda munosib ishtirok etib kelmoqda.

Umumiy qilib aytadigan bo'lsak, yo'qoridagi misollar Qoraqlapog'istonli yoshlarning ta'lim olishi uchun yaratilgan imkoniyatlarning bиргина namunasidir. Chunki, davlatimiz tomonidan amalga oshirilga islohatlar davom etmoqda. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida ham sifatli ta'lim masalasiga diqqat qaratilgan. Biz ham o'z navbatida keljak avlodning bilimli bo'lishiga hissa qo'shib, Yangi O'zbekistonimizni yanada rivojlantirish yo'lida bor kuch-g'ayratimizni sarflashimiz maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/07/01/karakalpakstan/>
2. www.hikmatlar.uz
3. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son., www.lex.uz